

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 268 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-sentabr holatiga, birlik	2025-yil yanvar-sentabr holatiga, birlik
Buxoro sh.	6 657	6606
G'ijduvon tumani	2 742	2485
Romitan tumani	2 507	2272
Jondor tumani	2 251	1995
Buxoro tumani	1 941	1857
Vobkent tumani	1 711	1489
Shofirkon tumani	1 599	1444
Kogon tumani	1 527	1350
Peshku tumani	1 481	1292
Qorako'l tumani	1 264	1078
Olot tumani	1 122	1018
Kogon sh	898	850
Qorovulbozor tumani	607	532

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabrida 3 410 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 082 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 762 ta, sanoatda 314 ta, boshqa xizmatlarda 379 tani tashkil etilgan.

maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 082 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 762 ta, sanoatda 314 ta va boshqa xizmatlarda 379 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Buxoro sh.	796	944
Romitan tumani	384	349
G'ijduvon tumani	334	286
Qorako'l tumani	246	283
Buxoro tumani	338	248
Shofirkon tumani	297	241
Jondor tumani	333	199
Kogon tumani	274	185
Vobkent tumani	322	174
Peshku tumani	281	162
Olot tumani	333	149
Kogon sh	113	112
Qorovulbozor tumani	83	78

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,2 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0.8 % kamaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,7% qurilishda – 86,9 %, xizmatlar sohasida – 68,8 % va sanoatda – 43,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 435,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 43,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 131,5 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Shofirkon tumani (93,6%), Jondor tumani (90,0%), Kogon shahar (80,9 %), Vobkent tumani (78,2 %) va Qorako'l tumani (72,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 11 996,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,6% ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Peshku tumani (96,4 %), Buxoro tumani (96,2 %) va Vobkent tumani (95,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 182,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 52,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 69,2% ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Olot (95,2 %), Shofirkon (91,7 %), Kogon shahri (88,9 %) va Vobkent (85,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati



2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 32 814,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,7 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi G'ijduvon tumani (99,6 %), Buxoro tumani (99,4 %), Olot tumani (99,3 %), Romitan tumini (99,2 %) va Vobkent tumani (99,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 635,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,2 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (99,7 %), Rometan tumani (99,6 %), Vobkent tumani (99,1 %) va Shofirkon tumani (99,1%), tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati
2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 20 314,5 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 68,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 115,1 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi G'ijduvon tumani (84,1 %), Kogon tumani (83,7 %), Olot tumani (81,3 %), Jondor tumani (80,5 %) va Buxoro tumani (80,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



2025- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 108,1 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 44,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kogon shaxrida – 100,0 %, Buxoro tumanida – 96,7 %, Peshku tumanida – 84,2 %, Jondor tumanida – 77,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabirida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 393,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 46,9 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kogon shahrida – 99,9 %, Jondor tumanida–99,9%, Kogon tumanida – 99,5 %, Rometan tumanida –97,5% va G'ijduvon tumanida–97,1%, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,1 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 80,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,7 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida 37,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida esa 31,9 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentabrida nisbatan 5,3 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 57,1 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 64,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 5,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,0 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 47,0 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 44,5 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 49,4 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 53,8 % yoki 4,4 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 3,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 1,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurulish sohasida – 37,8 % xizmatlar – 33,8 % ni, savdoda – 32,1 % ni va ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 77,3 % ni, sanoatda – 64,7 % ni va Savdo sohasida – 63,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,7 % ni, savdo sohasida – 4,4 % va Sanoatda – 3,8 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>